

O'ZBEKISTONDA QARDOSH TILLAR MATBUOTI: TARIXIY RIVOJLANISH VA O'ZBEK AXBOROT MAKONIDAGI O'RNI

Saidov Firdavs Ibragimovich,¹

¹ O'zDJTU, Axborot xizmati va jamoatchilik
bilan aloqalar kafedrasida katta o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.06.2025

Revised: 17.06.2025

Accepted: 18.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

Qardosh tillar, matbuot
tarixi, axborot makoni, milliy
nashrlar, madaniy xilma-xillik,
millatlararo totuvlik, ko'p
millatli jamiyat, ijtimoiy
axborot vositalari, matbuot
integratsiyasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada O'zbekistonda faoliyat yuritgan va yuritayotgan qardosh tillardagi matbuot nashrlari – xususan, tojik tilida chop etilayotgan gazeta va jurnallar O'zbekiston matbuot tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil etiladi. Maqolada bu nashrlarning tarixiy shakllanish bosqichlari, ularning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy hayotdagi roli hamda o'zbek axborot makonidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan.

Muallif turli millat vakillarining axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda ushbu nashrlarning funksional va gumanitar ahamiyatini ochib beradi. Ayniqsa, tojik tilidagi gazetalarning o'zbek matbuot tizimidagi integratsiyasi, millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni mustahkamlashdagi hissasini alohida e'tirof etilgan.

KIRISH. Bugungi globalashuv davrida ko'p millatli jamiyatlarda madaniyatlararo muloqot va axborot maydonining kengayishi, til siyosati va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston ko'p millatli davlat sifatida, o'z hududida istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillarining til huquqlarini ta'minlash, ularning madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish borasida bir qator muhim ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, qardosh tillarda – qozoq, qirg'iz, tojik va

boshqa tillarda chop etiladigan matbuot nashrlari ushbu xalq vakillarining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan turli qardosh tillardagi nashrlar, avvalo, u millat vakillarining madaniy-ma'naviy merosini asrash, ularni rivojlantirish hamda ona tilida axborot olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Respublikada ko'plab etnik guruhlar, jumladan, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar, va boshqalar istiqomat qiladi. Ularning ko'pchiligi uchun o'z ona tilida chiqqan gazeta va jurnallar nafaqat axborot manbai, balki ularni o'z milliy ildizlariga bog'lovchi muhim vositadir.

Xususan, mamlakatda tojik tilida chop etilayotgan davriy nashrlar o'zbek milliy matbuotida alohida o'ringa ega. Quyida ushbu nashrlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zbek matbuotida tutgan o'rni xususida fikr yuritamiz.

O'zbekistonda tojik tilidagi nashrlarning yuzaga kelishi

Markaziy Osiyoda matbaa va matbuot ushbu o'lka rus imperiyasi tomonidan ishg'ol qilingandan keyin yuzaga keladi. Dastlab 1871-yilda "Turkistanskiye vedomosti" degan gazeta chiqarilishi bilan o'lkada birinchi matbuot nashri paydo bo'ladi. Mazkur gazeta rus tilida chiqariladi va keyinchalik unga ilova sifatida o'zbek tilida "Turkiston viloyati gazetasi" chop etilishi boshlanadi. Shu tariqa birinchi ketin Turkistonda gazetalar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

XX-asr boshiga kelib, o'lka aholisini asriy g'afolat uyqusidan uyg'otish, xalq orasida ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib qilish uchun jadidlar o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida gazetalar chop etdilar⁸¹. Turkistonda tojik tilida nashrlar kechroq vujudga keladi. Sababi Turkistonning ommaviy tili o'zbek tili bo'lganligi uchun ko'pgina nashrlar aynan o'zbek tilida nashr etilgan.

Mintaqada dastlabki tojik tilida nashr etilgan gazeta bu "Buxoroyi sharif" gazetasi hisoblanadi. Buxoroda tojik tilidagi ro'znomani chop etish uchun juda ko'p sa'y-harakatlar amalga oshiriladi. S.Ayniy o'zining "Buxoro inqilobi tarixi" nomli asarida bu haqida shunday deydi: "1912-yilda Mirzo Muhiddin va Mirzo Siroj bu ishni (ya'ni gazeta chop etish) amalga oshirish yo'lini topdilar. Ular Kogon matbaa mudiri yahudiy Leviyni oldiga borib unga ushbu chiqariladigan nashr va undan keladigan foyda xususida gapiradilar. Leviy undan tushadigan foyda ilinjida bu ishga bosh qo'shadi va bu haqda elchixonaga murojaat yo'llaydi".⁸² S.Ayniy, shuningdek, qo'shimcha qiladi: "Yosh buxoroliklar hijriy 1330-yil (milodiy 1912-yilning mart oyida) Rossiyalik siyosiy vakili orqali amirdan gazeta nashri uchun ruxsat olishadi". "Buxoroyi sharif" gazetasiga yosh buxoroliklar tomonidan Rossiyaning vakili bo'lgan tarjimon Haydarxo'ja Mirbadalov bosh muharrir etib tayinlanadi. Elchixonaning iltimosiga asosan podshoh Leviy va Haydarxo'jaga gazetani kuchli nazorat va syenzura ostida chop etishlariga ruxsat beradi.

⁸¹ Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi. -Toshkent, 2000.

⁸² С. Айний. Таърихи инқилоби Бухоро. - Душанбе: Адиб, 1987

Shu tariqa 1912-yilning 11-mart sanasida “Buxoroyi sharif” gazetasining 1-soni tojik tilida nashrdan chiqadi. Gazeta Kogon shahrining matbaa uyida chop etilgan. “Buxoroyi sharif” gazetasining nashr etilishi Markaziy Osiyoda boshqa tojik tilidagi gazetalarni va tojik tilidagi sahifalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi. Jumladan, 1913-yilda Samarqanda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand”, 1914-yilda Toshkentda Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev muharrirligida “Sadoi Turkiston”, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida “Sadoi Farg‘ona” gazetalari o‘zbek va tojik tilida, Ashxobod shahrida “Ro‘znomayi mavaroi bahri Xazar” gazetalari tojik va turkman tilida chop etiladi.

Yosh buxoroliklar, xususan, ularning rahnamosi bo‘lgan Mirzo Muhiddin ruhoniylar va amirning amaldorlari “Buxoroyi sharif” gazetasining rivojlanib ketishiga to‘sqinlik qilishini yaxshi bilar edi. Shu sababdan Mirzo Muhiddinning topshirig‘i bilan Leviy va Haydarxo‘ja Buxoro qushbegisiga yordam so‘rab murojaat qilishadi. Zudlik bilan “Buxoroyi sharif” gazetasida Buxoro qushbegisi Mirzo Nasrulloxonning quyidagi rozilik mazmunidagi nutqi chop etiladi: “Har kim o‘z ixtiyori bilan mazkur gazetaga mushtariy bo‘lishi mumkin. Bu borada bizda hech qanday qarshilik yo‘q”. Vazirning ushbu maktubi gazeta mushtariylarining birdan ko‘payib ketishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Hattoki hokim va qozilar gazetani amirlik nashri deb bilib uni o‘qiy boshlaydilar.

Ammo gazetaning haqiqiy o‘quvchilari bu albatta, yosh buxoroliklar, madrasa o‘quvchilari va savodli kosiblaru dehqonlar edi. Gazeta ham o‘z sahifalarida maqolalarni imkon darajasida ularga moslashtirishga harakat qilardi.

“Buxoroyi sharif” gazetasining jami 153 soni nashrdan chiqadi va 1913-yil 2-yanvardan o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Sobiq ittifoq hukumati davrida “Shu‘layi inqilob” nomli dastlabki to‘liq tojik tilidagi gazeta chop etiladi. 8 sahifadan iborat ushbu gazetaning jami 91 soni nashrdan chiqqan bo‘lib uning bosh muharriri samarqandlik Saidrizo Alizoda edi. Gazetaning 1-soni 1919-yil 10-aprel sanasida Samarqandda chop etiladi. Gazetaning o‘ng yuqori qismida uning shiori yozilgan edi: “Ranjbaroni tamomi jahon, muttahid!

Shuningdek, “Qutulish” (1920-yil), “Uchqun” (1920-yil), “Buxoro axbori” (1921-yil), “Ro‘shnoyi” (1921) singari sobiq sho‘rolar gazetalari o‘zbek va tojik tillarida asosan Toshkent, Samarqand va Buxoro hududlarida chop etila boshlangan. Manbalarga ko‘ra 1921-yilda Turkiston hududida jami 46 nomdagi gazetarlar nashr etilgan.

“Ovozi tojik” gazetasi. 1924-yilning 25-avgust sanasida Samarqand shahrida “Ovozi tojik” gazetasining birinchi soni nashrdan chiqadi. Mazkur gazeta dastlab 4 sahifada arab alifbosida chop etiladi. Abdulqayum Qurbiiy muharrirligida chop etilgan gazetaning mas‘ul kotibi Saidrizo Alizoda edi. Gazetaning dastlabki sonlari “Ovozi tojiki kambag‘al” nomi ostida chop etiladi. 1924-yilning dekabridan boshlab “Ovozi tojik” deb nomlanadi. “Ovozi tojik” gazetasining nashrdan chiqishi – nafaqat tojik milliy matbuotining, balki umuman, sovet davrida O‘rta Osiyoda shakllangan yangi axborot makonining muhim

bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu gazeta o'zbek va tojik xalqlari o'rtasida madaniy ko'prik vazifasini o'tagan, tojik tilidagi ommaviy nashr sifatida tarixga kiradi.

Gazetaning 1-soni 2000 nusxada chop etilgan bo'lib, unda S.Alizodaning "Debocha va marom", S.Ayniyning "Qavmi tojik va ro'znoma", A.Qurbiyning "Ro'znoma chist", M.Rahimiyning "Ko'histoniyon va maorif" nomli maoqlalari nashr etilgan.⁸³

Keyinchalik, 1926-yildan boshlab, uning nashri haftasiga ikki marta, tiraji esa 5000 nusxagacha oshgan. Bu davrda gazeta sahifalarida tojik xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ta'limi va adabiyoti haqida maqolalar chop etilgan. Shuningdek, gazeta orqali tojik tilining rivoji va uning yozuv shakllari bo'yicha muhim materiallar taqdim etilgan. 1926-1927-yillarda "Ovozi tojik" gazetasiga ilova sifatida "Rohnamoyi muxbiron", "Savodi mehnat" gazetalari va "Mullo Mushfiqiy" jurnali nashr etila boshlanadi.

"Ovozi tojik" gazetasi qisqa fursat ichida ko'pgina taniqli adiblar va publisist ijodkorlarni o'z atrofida jamladi. Gazetaning dastlabki sonlarida chop etilgan maqolalarda mualliflar o'quvchilarga o'z maqsadlari va jamiyatdagi rollari haqida tushuntirishlar beradilar.

Gazeta, shuningdek, tojik xalqining siyosiy va ijtimoiy ongini oshirishda muhim vosita bo'lgan. Sadriddin Ayniy gazetaning birinchi sonlarida "Har bir millatning gazeta chiqarishi uning tilini rivojlantirishga xizmat qiladi" degan fikrni ilgari surgan. Bu gazeta orqali tojik xalqining siyosiy va madaniy o'zligini mustahkamlashga qaratilgan maqsadlar amalga oshirilgan. Umuman olganda "Ovozi tojik" tojik xalqining siyosiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotida, O'zbekiston hududida tojik millatli aholining ilmiy qilishida muhim rol o'ynaydi.

"Ovozi tojik"ning mavzular ko'lami. "Ovozi tojik" gazetasining ilk yillaridagi asosiy mavzular mazmuni o'sha davrning siyosiy, madaniy va ijtimoiy kontekstiga bevosita bog'liq bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda aks etgan:

1. *Savodsizlikka qarshi kurash va ma'rifat tarqatish*
2. *Milliy uyg'onish va madaniy meros*
3. *Ayollar masalasi*
4. *Adabiy va san'at*
5. *Til va imlo islohoti*

Gazetaning asosiy mavzularidan biri bu albatta maktab va maorif masalasi edi. Bu mavzu doirasida S.Alizoda va S.Ayniyning turkum maqolalari chop etiladi. Unda asosan yoshlarni maktablarga jalb qilish, tojik tilidagi maktablarni ta'sis etish, tojik tilidagi darsliklarni chop etish kabi masalalar tahlil qilinadi. "Ovozi tojik" O'zbekistondagi maktab va maorif masalasidan tashqari qo'shni respublikalar, xususan, Tojikiston va Turkmanistondagi tojiklar hayotiga oid mavzularni yoritib borar edi.

XULOSA

O'zbekiston axborot tizimining shakllanishi va rivojlanishida qardosh tillardagi matbuot nashrlari alohida tarixiy va sivilizasion ahamiyatga ega. XX asr boshlaridan boshlangan bu

⁸³ Usmonov I., Davronov D. Tarixi matbuoti tojik. – Dushnabe, 1997

jarayon, sovet davri mobaynida milliy siyosat doirasida qardosh xalqlarning til va madaniyatini rivojlantirish, ularni kommunistik mafkuraga integratsiyalash kabi maqsadlar bilan uyg'unlashgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng ularning asosiy funksiyasi tubdan yangilandi – endilikda ular madaniy o'zlikni saqlash, tilni rivojlantirish va axborotga teng huquqli kirishni ta'minlash vositasi sifatida maydonga chiqdi.

Bu nashrlar orqali:

- milliy identitetning saqlanishi,
- ona tilida axborot olish huquqi,
- madaniyatlararo muloqotga zamin yaratish,
- va ijtimoiy inklyuziyaning mustahkamlanishi ta'minlanmoqda.

Shuningdek, maqolada tahlil qilinganidek, ushbu nashrlar faqatgina lingvistik yoki madaniy muhimlikka emas, balki ijtimoiy sog'lom muhit va demokratik jamiyatning axborot asoslarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Respublikada faoliyat yuritayotgan qardosh tillardagi ommaviy axborot vositalarining mavjudligi bu borada yuksak siyosiy irodaning mavjudligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi. – Toshkent, 2000.
2. Usmonov I. Davronov D. Tarixi matbuoti tojik. – Dushnabe, 1997
3. С. Айнӣ. Таърихи инқилоби Бухоро. - Душанбе: Адиб, 1987

Internet Manbalari

1. ovozitojik.uz
2. press.natlib.uz
3. ovozi.uz